Vatan himoyasi – muqaddas burch!

O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan “Vatan – muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!” mavzusida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Uni O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyining direktori X.T.Fayziyev ochib berdi. Unda muzey xodimlari, Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi rahbariyati va Fondning Toshkent viloyati muassasasi boshliqlari, shuningdek, Chirchiq Oliy tank qo‘mondon-muhandislik bilim yurti ofitserlari, professor-o‘qituvchilari hamda kursantlari qatnashdi.

Bayram tadbirida O‘zbekistonning Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlar, o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutgan Amir Temur va Temuriylar davrining harbiy salohiyati tarixiga bag‘ishlangan ilmiy ma’ruzalar tinglandi.

Tadbir so‘nggida “Kitobxonlik viktorinasi” o‘tkazildi va g‘oliblarga Sohibqiron Amir Temur hamda Temuriylar hayoti va faoliyatiga tegishli kitob-risolalar taqdim etildi.